

- This is not registered version of TotalDoc Converter
Dunyoning shu qatriga kiradi, aka. Tashkentda o'qib o'tirib qolib, mana, tuzukkina tanishvoldik.
- O'zi qacrliksiz, aka?
 - Eshonguzarda turaman.
 - Ie! Balki pochchamni tanirsiz?
 - Opang eshonguzarga tushganmi?
 - Yo'q, singlim. Oti Xolinisa.
 - Xolinisa dedingmi? To'xta, to'xta, haligi hindujamol kelin seni singling bo'lmasin tag'in? Qoshlari tutash. O'rtasida ofatijon xol. Topdimmi?
 - Hmm...
 - Yuzlari lo'ppigina ... Bodomqovoq...
 - Ha endi...
 - Kaltabaqay. Sochlari taqimini o'pib turadi. Ko'zlari shahlo. Topdimmi?
 - Shu gaplarni menga gapirishingizni qarang...
 - Mo'dalar uyida ishlaydimi axir?
 - Xuddi o'sha! Bilarkansiz-ku!
 - Nega bilmayin? U har kuni ishga kelayotib ham, qaytayotib ham do'konimning yonidan oqqushdek suzib o'tadi. Mana bunday, mana bunday qilib...
 - E, o'tiring, aka. O'tirsangiz-chi. Hammaga tomosha bo'lyapsiz... Xullas, pochchamni uchratib qolsangiz, unga mendan salom aytib qo'ying. Bo'ptimi?
 - Hey, qiziq yigit ekansan-ku. Pochchangni umrimda ko'rmagan bo'lsam, qanaqasiga unga salom aytaman?

1978